



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 444 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlarini.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmamatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	
Ta'lim sifatini monitoring qilishda elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish: amaliy muammolar va takomillashtirish modeli	376
Oripova Shahzoda Zafarjon qizi	
Специфика подготовки фигуристов-одиночников на тренировочном этапе	380
Тохинова Шохсанам Фарход кизи	
Talabalarning Speaking ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish	385
Rasulova Moxira Abdusalilovna	
Umumta'lim jarayoni uchun milliy dastur yaratish hamda amaliyotga joriy etish nazariyasi	388
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Ta'lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligi mazmuni va tarkibiy komponentlari	394
Shakadirova Nigora Irgashevna	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirish: xorijiy tajriba va milliy model	398
Shabbazova Nodira Xamzayevna	
Мотивация к изучению английского языка у старшеклассников: теоретико-методологические основы, факторы и педагогические условия	403
Хаджиметова Дилноза Рахимовна	
Milliy hunarmandchilik vositasida uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	408
Baxronova Shoir Yadorovna	



O'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari tuzilishi	415
Botirova G. B.	
Radioelektron qurilmalarni konstruksiyasi va loyihalash fanini o'qitishda virtual-real laboratoriya mashg'ulotlarining integratsiyalashgan metodik modeli	421
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Gender yondashuvi asosida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	427
Tojiboyeva Gulchexra Sadriddinovna	
Raqamli avlod o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni tarix ta'limi orqali shakllantirishning pedagogik mexanizmlari.....	437
Ahmedov Nodir Kodiraliyevich	



RAQAMLI AVLOD O'QUVCHILARIDA AXLOQIY DUNYOQARASHNI TARIX TA'LIMI ORQALI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Ahmedov Nodir Kodiraliyevich

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: ahmedovnodir@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli avlod o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni tarix ta'limi vositasida shakllantirishning pedagogik mexanizmlari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Muallif axloqiy dunyoqarashning kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulqiy-faoliyatli komponentlardan iborat uch qismli tuzilmasini asoslaydi hamda tarix ta'limining beshta pedagogik mexanizmini – manbaviy tahlil, kontekstlashtirish va tarixiy perspektiva, axloqiy o'lchov ustida mulohaza yuritish, raqamli axborotni tanqidiy baholash, milliy ma'naviy meros bilan bog'lash – ajratib ko'rsatadi. Mexanizmlarning axloqiy dunyoqarash komponentlariga muvofiqligi jadval shaklida umumlashtirilib, tarix darsida axloqiy baholashning anaxronizm va prezentizm kabi metodologik xatarlaridan qochish shartlari ko'rsatib berilgan. Ishning natijalari umumiy o'rta ta'lim tizimida axloqiy tarbiya nazariyasini rivojlantirishga va tarbiya jarayonini maqsadli loyihalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli avlod, axloqiy dunyoqarash, tarix ta'limi, tarixiy tafakkur, manbaviy tahlil, tarixiy perspektiva, tarixning axloqiy o'lchovi, raqamli savodxonlik, fuqarolik onlayn mulohazasi, pedagogik ta'limotlar tarixi, milliy pedagogik meros.

Abstract: The article provides a theoretical and methodological analysis of the pedagogical mechanisms for shaping the moral worldview of digital-generation students through history education. The author substantiates a three-component structure of the moral worldview – cognitive, emotional-evaluative, and behavioural-practical – and identifies five pedagogical mechanisms of history education: source analysis, contextualisation and historical perspective-taking, reasoning about the ethical dimension, critical evaluation of digital information, and linkage with national spiritual heritage. The correspondence between the mechanisms and the components of the moral worldview is summarised in a table, and the conditions for avoiding the methodological risks of anachronism and presentism in moral evaluation during history lessons are outlined. The findings contribute to developing the theory of moral education and to the purposeful design of the upbringing process in general secondary education.

Key words: digital generation, moral worldview, history education, historical thinking, source analysis, historical perspective, ethical dimension of history, digital literacy, civic online reasoning, history of pedagogical doctrines, national pedagogical heritage.

Аннотация: В статье теоретико-методологически проанализированы педагогические механизмы формирования нравственного мировоззрения учащихся цифрового поколения средствами исторического образования. Автор обосновывает трёхкомпонентную структуру нравственного мировоззрения, включающую когнитивный, эмоционально-ценностный и поведенческо-деятельностный компоненты, и выделяет пять педагогических механизмов исторического образования: анализ источника, контекстуализацию и историческую перспективу, рассуждение об этическом измерении, критическую оценку цифровой информации и соотнесение с национальным духовным наследием. Соответствие механизмов компонентам нравственного мировоззрения обобщено в таблице; показаны условия предотвращения методологических рисков анахронизма и презентизма при нравственной оценке на уроке истории. Результаты работы служат развитию теории нравственного воспитания и целенаправленному проектированию воспитательного процесса в системе общего среднего образования.

Ключевые слова: цифровое поколение, нравственное мировоззрение, историческое образование, историческое мышление, анализ источника, историческая перспектива, этическое измерение истории, цифровая грамотность, гражданское онлайн-рассуждение, история педагогических учений, национальное педагогическое наследие.



KIRISH

Raqamli texnologiyalarning umumiy o'rta ta'lim muhitiga kirib kelishi tarix fanini o'qitishning an'anaviy modelini tubdan o'zgartirdi. Bugungi o'quvchi o'tmish haqidagi dastlabki tasavvurni ko'pincha darslikdan yoki o'qituvchi bayonidan emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa videolar, memlar, o'yin syujetlari va algoritmik tavsiya tizimlari taklif etadigan kontentdan oladi. Bunday sharoitda tarixiy bilim o'quvchi ongida yaxlit va izchil tizim sifatida emas, balki manbasi, muallifi va maqsadi noma'lum bo'lgan tarqoq parchalar to'plami sifatida shakllanish xavfi yuzaga keladi. Ayni shu jarayon o'quvchining axloqiy dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: o'tmishdagi shaxs va voqealarga beriladigan baho, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, mas'uliyat va befarqlik haqidagi tasavvurlar aynan tarixiy materialni idrok etish jarayonida mustahkamlanadi. Mazkur muammoning davlat siyosati darajasidagi ahamiyati normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21-son¹ 16.02.2026-yildagi mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida qabul qilingan hujjat inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va sifatli ta'lim tizimini shakllantirishni strategik vazifa sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining 637-son² 23.09.2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni esa ta'lim tizimining yagonaligi va uzluksizligi tamoyilini mustahkamlab, ta'lim sohasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilab bergan. Bu hujjatlar tarix ta'limini bilim uzatish vositasi doirasidan chiqarib, shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishning tizimli mexanizmi sifatida qarashni taqozo etadi.

Shu bilan birga, mavjud pedagogik tadqiqotlarda raqamli muhit ko'proq texnologik vosita yoki xavf manbai sifatida talqin qilinib, uning tarix ta'limi orqali axloqiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonidagi o'rni yetarlicha tizimlashtirilmagan. Xususan, tarix darsida axloqiy baholash qaysi didaktik mexanizmlar orqali amalga oshirilishi, bu mexanizmlarning axloqiy dunyoqarash tuzilmasidagi qaysi komponentga yo'naltirilganligi va ular raqamli muhit sharoitida qanday o'zgarishi masalasi ochiq qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'tmish tajribasi orqali axloqiy tarbiya berish g'oyasi Markaziy Osiyo pedagogik ta'limotlari tarixida uzoq an'anaga ega. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida shaxsning axloqiy kamoloti jamiyat tuzilishi, ta'lim va ma'naviy rahnamolik orqali shakllanadigan sifat ekanini asoslagan. Mutafakkir fazilatli jamiyat va fazilatli fuqaro o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, tarbiya muhitiga hal qiluvchi ahamiyat bergan. Zamonaviy talqinda bu tarbiyaviy muhitni maqsadli loyihalash tamoyilidir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida adolat, aql, donishmandlik va qanoat timsollari orqali jamiyatdagi har bir institutning tarbiyaviy vazifasi belgilangan; bilim faqat xulq bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy qadriyat kasb etishi ta'kidlangan. Muhimi shundaki, mutafakkir o'z g'oyalarini mavhum va'z shaklida emas, balki tarixiy va hayotiy timsollar orqali bayon etgan, ya'ni axloqiy tarbiyaning namuna va hikoyat orqali amalga oshirilishi milliy pedagogik an'anada allaqachon metod darajasiga ko'tarilgan edi.

XX asr boshidagi milliy ma'rifatparvarlik pedagogikasi mazkur an'anani tizimli o'quv mazmuniga aylantirdi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek tilida yaratilgan dastlabki mukammal axloq darsligi bo'lib, unda axloqiy sifatlar "yaxshi xulqlar" va "yomon xulqlar" guruhlariga ajratilib, har biri alohida maqolat sifatida izohlangan. Avloniy tajribasining bugungi ahamiyati shundaki, u axloqiy mazmunni o'qitiladigan, o'zlashtiriladigan va baholanadigan tizim sifatida qurgan. Raqamli muhit sharoitida ushbu yondashuv yangi shaklda – tarixiy material asosidagi axloqiy vaziyat va munozara texnologiyalari ko'rinishida davom ettirilishi mumkin.

"Raqamli avlod" tushunchasi ilmiy muomalaga M. Prensky tomonidan kiritilgan bo'lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ulg'aygan yoshlarni oldingi avlodlardan farqlash uchun "raqamli aborigen" va "raqamli muhojir" atamalarini taklif etgan. Muallif ushbu avlod axborotni qabul qilish va qayta ishlash usullari bo'yicha o'ziga xos ekanini, ta'lim tizimi esa bu o'zgarishga moslashishi zarurligini asoslagan. Ayni paytda mazkur konsepsiya keyingi tadqiqotlarda tanqidga uchrangani, xususan, yoshlarning texnologik ko'nikmalari ularning axborotni tanqidiy baholash malakasini avtomatik ravishda ta'minlamasligi qayd etilgani ham e'tiborga olinishi lozim. Shu bois maqolada "raqamli avlod" tushunchasi biologik yoki avlodiy determinizm sifatida emas, balki ta'lim muhitining o'zgargan ijtimoiy-axborot sharoiti sifatida talqin qilinadi.

Raqamli avlod o'quvchisining tarixiy material bilan ishlashdagi o'ziga xosligi bir necha jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, axborotni qabul qilish uzuq-yuluq va tezkor tarzda kechadi: uzun matn o'rniga qisqa vizual format afzal ko'riladi.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>

² <https://lex.uz/docs/-5013007>



Ikkinchidan, axborot manbaining obro'si ko'pincha uning ilmiy asosliliigi bilan emas, balki tarqalish darajasi va taqdimot shakli bilan o'lchanadi.

Uchinchidan, o'quvchi bir vaqtning o'zida bir-biriga zid ko'plab tarixiy talqinlarga duch keladi, biroq ularni solishtirish va tanlash mezoniga ega bo'lmasligi mumkin.

Ushbu uchala jihat tarix ta'limi oldiga yangi didaktik vazifa qo'yadi: o'quvchiga tayyor talqinni yetkazish emas, balki talqinlarni baholash tartibini o'rgatish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarix ta'limi metodikasidagi tayanch nazariy yondashuv S. Wineburg tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Muallif tarixiy tafakkurni "g'ayritabiiy akt" deb atagan holda, u insonda tabiiy ravishda shakllanmasligini, aksincha, maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali rivojlantirilishi zarurligini asoslagan. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchi matnni oddiy axborot manbai sifatida emas, balki muayyan muallif tomonidan, muayyan maqsad bilan, muayyan tarixiy vaziyatda yaratilgan hujjat sifatida idrok etishi kerak. Manbaining muallifini, yaratilish sanasini va maqsadini aniqlash ko'nikmasi tarixiy tafakkurning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Ushbu ko'nikma, o'z navbatida, axloqiy dunyoqarashning kognitiv asosini tashkil etadi: dalilga tayanmagan axloqiy hukm ilmiy asosga ega bo'lolmaydi.

P. Seixas va T. Morton tarixiy tafakkurning oltita tayanch tushunchasini tizimlashtirgan: tarixiy ahamiyat, dalil, uzluksizlik va o'zgarish, sabab va oqibat, tarixiy perspektiva hamda tarixning axloqiy o'lchovi. Mazkur tasnifning oxirgi ikki tushunchasi tadqiqotimiz uchun bevosita metodologik ahamiyatga ega. "Tarixiy perspektiva" o'tmishdagi shaxsning qaroriga uning o'z davri qadriyatlarini nuqtai nazaridan yondashishni, "tarixning axloqiy o'lchovi" esa o'tmish voqealariga asoslangan axloqiy hukmni ilmiy dalil va tarixiy kontekst bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Bu ikki tushunchaning birlashuvi tarix darsini axloqiy tarbiyaning tabiiy maydoniga aylantiradi.

K. Barton va L. Levstik tarix ta'limining ijtimoiy vazifalarini tahlil qilib, o'quvchining o'tmishga munosabatidagi bir necha yondashuvni, jumladan, axloqiy javob yondashuvini ajratib ko'rsatgan va tarix ta'limi demokratik jamiyatda umumiy manfaat yo'lidagi ishtirokchilikka xizmat qilishi lozimligini asoslagan. Ushbu qarash tarix darsidagi axloqiy baholashni shaxsiy hissiy munosabat darajasidan chiqarib, uni fuqarolik mas'uliyati bilan bog'lash imkonini beradi.

Raqamli muhitdagi axborotni baholash muammosi bo'yicha eng ishonchli empirik ma'lumotlar Stenford tarix ta'limi guruhi tadqiqotlarida keltirilgan. 2015–2016-yillarda 12 shtatda o'tkazilgan tadqiqotda 7 804 ta o'quvchi javobi tahlil qilinib, o'quvchilarning onlayn axborot ishonchliliigini baholash ko'nikmasi juda past ekani aniqlangan. Keyinchalik 3 446 nafar yuqori sinf o'quvchisi ishtirokidagi kengaytirilgan tadqiqotda respondentlarning 96 foizi iqlim masalasida "faktik hisobotlar" tarqatishini da'vo qilgan saytning yoqilg'i sanoati bilan aloqasini aniqlay olmagani, uchdan ikki qismi esa yangilik materialini reklamadan farqlay olmagani qayd etilgan. Ushbu natijalar raqamli muhitda ulg'aygan avlodning texnologik ko'nikmasi axborotni tanqidiy baholash malakasiga aylanmasligini ko'rsatadi va tarix ta'limida maxsus didaktik ishlanmalar zarurligini tasdiqlaydi.

Raqamli muhitning falsafiy mohiyatini L. Floridi "infosfera" tushunchasi orqali izohlab, oflayn va onlayn hayot o'rtasidagi chegaraning yo'qolishi natijasida shaxs "onlife" holatiga o'tishini asoslagan. Bunday sharoitda axloqiy mas'uliyat tushunchasi kengayadi: u endi nafaqat real munosabatlarni, balki raqamli izlar, onlayn xulq-atvor va axborot tarqatishdagi mas'uliyatni ham qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida axloqiy dunyoqarash pedagogik hodisa sifatida uch komponentli tuzilmaga ega ekani aniqlandi.

Birinchi – kognitiv komponent: axloqiy tushuncha va me'yorlar haqidagi bilim, dalilga tayanib mulohaza yuritish, sabab-oqibat aloqalarini anglash.

Ikkinchi – emotsional-qadriyatli komponent: empatiya, boshqa shaxsning holatiga qo'sha oluvchanlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabat.

Uchinchi – xulqiy-faoliyatli komponent: axloqiy bilimni real vaziyatda tanlov qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish orqali namoyon etish.

Tarix ta'limining tarbiyaviy salohiyati aynan shu uchala komponentga bir vaqtda ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Nazariy manbalar tahlili asosida tarix ta'limi orqali axloqiy dunyoqarashni shakllantirishning beshta pedagogik mexanizmi ajratildi.



Birinchi mexanizm – manbaviy tahlil. O'quvchi tarixiy hujjat bilan ishlashda uning muallifi kim ekani, qachon va qanday maqsadda yaratilgani, muallif qanday manfaatga ega bo'lgani kabi savollarga javob izlaydi. Bu jarayon axloqiy hukmni shaxsiy taassurotdan emas, balki tekshirilgan dalildan kelib chiqib shakllantirish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Ikkinchi mexanizm – kontekstlashtirish va tarixiy perspektiva. O'quvchi o'tmishdagi shaxsning qarorini bugungi kun me'yorlari bilan emas, balki o'sha davr sharoiti, imkoniyatlari va cheklovlari doirasida baholashga o'rgatiladi. Bu mexanizm empatiyani rivojlantirish bilan birga, tarixiy jarayonning murakkabligini anglashga olib keladi.

Uchinchi mexanizm – axloqiy o'lchov ustida mulohaza yuritish. Dars jarayonida tarixiy shaxs duch kelgan tanlov vaziyati muhokama predmetiga aylantiriladi: qanday muqobil yechimlar mavjud edi, qaysi qadriyatlar to'qnashgan edi, qaror qanday oqibatlarga olib keldi. Bunday munozara o'quvchida o'z hayotidagi axloqiy tanlovlarni ham tahlil qila olish malakasini shakllantiradi.

To'rtinchi mexanizm – raqamli axborotni tanqidiy baholash. Onlayn muhitda tarqaladigan tarixiy kontentni tekshirish, manbaning o'zini boshqa manbalar yordamida baholash, dezinformatsiya va soxta tarixiy talqinlarni aniqlash ko'nikmasi tarix darsining ajralmas qismiga aylantiriladi. Yuqorida keltirilgan empirik ma'lumotlar bu mexanizm alohida didaktik ishlanmani talab etishini ko'rsatadi.

Beshinchi mexanizm – milliy ma'naviy meros bilan bog'lash. Milliy tarix va yozma meros manbalaridagi axloqiy timsollar zamonaviy vaziyatlarga tatbiq etiladi, natijada o'quvchida tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash tuyg'usi mustahkamlanadi.

Mazkur mexanizmlarning nazariy asosi, didaktik vositalari va kutilayotgan natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Tarix ta'limi mazmuni asosida axloqiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari

Pedagogik mexanizm	Didaktik vosita	Kutilayotgan natija
Manbaviy tahlil (sourcing)	Birlamchi manba bilan ishlash; muallif, sana, maqsad va manfaatni aniqlash	Kognitiv komponent: dalilga tayanib fikrlash ko'nikmasi
Kontekstlashtirish va tarixiy perspektiva	Voqeani o'z davri sharoitida talqin qilish; anaxronizmni bartaraf etish	Emotsional-qadriyatli komponent: empatiya va bag'rikenglik
Axloqiy o'lchov ustida mulohaza	Tarixiy shaxs qarori atrofida munozara; alternativ yechimlarni qiyoslash	Xulqiy-faoliyatli komponent: mas'uliyatli tanlov malakasi
Raqamli axborotni tanqidiy baholash	Onlayn tarixiy kontentni yon o'qish (lateral reading) usulida tekshirish	Kognitiv komponent: dezinformatsiyaga qarshi immunitet
Milliy ma'naviy meros bilan bog'lash	Milliy manbalardagi axloqiy timsollarni zamonaviy vaziyatga tatbiq etish	Emotsional-qadriyatli komponent: milliy o'zlikni anglash

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ajratilgan mexanizmlar axloqiy dunyoqarashning uchala komponentini qamrab oladi va bir-birini to'ldiradi. Ular alohida-alohida emas, balki yaxlit didaktik tizim sifatida qo'llanilgandagina kutilgan natijani beradi: manbaviy tahlilsiz axloqiy mulohaza asossiz bo'lib qoladi, kontekstlashtirishsiz esa u anaxronizmga aylanadi.

Mexanizmlarni joriy etishda o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. An'anaviy modelda o'qituvchi tarixiy bilimning yagona va so'nggi manbai sifatida chiqadi; raqamli muhit sharoitida esa uning vazifasi o'zgaradi: u o'quvchining axborot oqimidagi harakatini yo'naltiruvchi, manbalarni solishtirishga o'rgatuvchi va munozarani boshqaruvchi metodologik rolni bajaradi. Bu rol o'zgarishi o'qituvchidan uchta yangi kasbiy kompetensiyani talab qiladi:

- birlamchi manba bilan ishlash metodikasini egallash;
- onlayn tarixiy kontentni tekshirish usullarini bilish;
- axloqiy mazmundagi munozarani o'quvchilar o'rtasidagi qarama-qarshilikka aylantirmasdan olib borish malakasi.

Mazkur kompetensiyalar tarix o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarida alohida modul sifatida qamrab olinishi maqsadga muvofiq.



Tadqiqot davomida tarix darsida axloqiy baholashni tashkil etishning ikkita jiddiy metodologik xatari aniqlandi.

Birinchisi – **anaxronizm**, ya'ni o'tmish voqealarini bugungi kun me'yorlari bilan bir tomonlama baholash. Bunday yondashuv o'quvchida tarixiy jarayonning sodda va bir chiziqli tasavvurini hosil qiladi.

Ikkinchisi – **prezentizm**, ya'ni o'tmishni faqat hozirgi siyosiy yoki ijtimoiy talablarga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilish. Har ikki xatarning oldini olish sharti – axloqiy hukmni doimo tarixiy kontekst va tekshirilgan dalil bilan asoslash, o'quvchiga esa yagona "to'g'ri javob"ni emas, balki mulohaza yuritish tartibini o'rgatishdir.

Aniqlangan mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish quyidagi didaktik shartlarga rioya qilishni taqozo etadi:

- darsda kamida ikkita bir-biriga zid manbaning taqqoslanishi;
- o'quvchiga o'z pozitsiyasini dalil bilan asoslash imkoniyatining berilishi;
- muhokamada muqobil nuqtai nazarlarning ochiq bayon etilishi;
- onlayn manbalarni tekshirish tartibining o'quv topshirig'iga kiritilishi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarining qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi sifatida taqdim etilishi.

Mazkur shartlar tarix darsini axloqiy tarbiyaning tabiiy va samarali maydoniga aylantiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maqolada taklif etilayotgan mexanizmlar tizimi nazariy tahlil natijasi hisoblanadi. Uning samaradorligini baholash uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, nazorat va tajriba guruhlarida axloqiy dunyoqarash shakllanganlik darajasini o'lchash hamda natijalarni matematik-statistik usullar bilan qayta ishlash zarur. Bu vazifa tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida belgilangan.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, axloqiy dunyoqarash pedagogik hodisa sifatida kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulqiy-faoliyatli komponentlarning yaxlitligini ifodalaydi; tarix ta'limining tarbiyaviy salohiyati aynan ushbu uchala komponentga bir vaqtda ta'sir ko'rsata olishida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, milliy pedagogik ta'limotlar tarixida Forobiydan Yusuf Xos Hojib va Abdulla Avloniygacha o'tmish tajribasi va timsollari orqali axloqiy tarbiya berish an'anasi izchil rivojlangan; mazkur meros zamonaviy mexanizmlar tizimining milliy nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli muhit tarix ta'limining an'anaviy vazifalarini bekor qilmaydi, biroq ularga yangi talab qo'yadi: o'quvchi endi nafaqat tarixiy bilimni o'zlashtirishi, balki onlayn muhitda tarqaladigan tarixiy kontentning ishonchililigini mustaqil baholay olishi zarur.

To'rtinchidan, tarix ta'limi orqali axloqiy dunyoqarashni shakllantirishning beshta pedagogik mexanizmi – manbaviy tahlil, kontekstlashtirish va tarixiy perspektiva, axloqiy o'lchov ustida mulohaza yuritish, raqamli axborotni tanqidiy baholash hamda milliy ma'naviy meros bilan bog'lash – yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi va faqat o'zaro bog'liqlikda samara beradi.

Beshinchidan, tarix darsida axloqiy baholashni tashkil etishda anaxronizm va prezentizm xatarlarini bartaraf etish zarur; buning sharti – har qanday axloqiy hukmni tarixiy kontekst va tekshirilgan dalil bilan asoslashdir.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- umumiy o'rta ta'lim tarix fani o'quv dasturiga birlamchi manba bilan ishlash va onlayn tarixiy kontentni tekshirish bo'yicha maxsus o'quv topshiriqlari blokini kiritish;
- tarix o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslarida tarixning axloqiy o'lchovi bo'yicha munozara tashkil etish metodikasiga oid modulni joriy etish;
- milliy yozma meros manbalari asosida axloqiy vaziyatli topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish va uni raqamli formatda taqdim etish;
- axloqiy dunyoqarash shakllanganlik darajasini baholashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqib, ularni tajriba-sinov ishlari doirasida aprotatsiyadan o'tkazish.

Mazkur takliflarni amalga oshirish tarix ta'limining tarbiyaviy salohiyatini raqamli muhit sharoitida to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarjimonlar A. Irisov, M. Mahmudov, U. Otajon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 320 b.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga boshlovchi bilim) / Tarjimon A. Parda. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 556 b.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913. – Elektron matn: <https://archive.org/stream/TurkiyGuliston-YoxudAxloq-AbdullaAvloniy>
6. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. Part 1 // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6. – DOI: 10.1108/10748120110424816.
7. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. – Philadelphia: Temple University Press, 2001.
8. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013. – 218 p.
9. Barton K.C., Levstik L.S. Teaching History for the Common Good. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2004.
10. Wineburg S., McGrew S., Breakstone J., Ortega T. Evaluating Information: The Cornerstone of Civic Online Reasoning. – Stanford: Stanford Digital Repository, 2016. – URL: <https://purl.stanford.edu/fv751yt5934>
11. Breakstone J., Smith M., Wineburg S. et al. Students' Civic Online Reasoning: A National Portrait // Educational Researcher. – 2021. – DOI: 10.3102/0013189X211017495.
12. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 248 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.